

Xotiraga yo'g'rilgan ziyorat

Mamlakatimizda bugun aholi va ayniqsa, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda Vatanimiz istiqlolli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzumi davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etish muhim masaladir. "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti 1-kurs talabalari guruh murabbiylari rahbarligida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbanlari xotirasi" davlat muzeyiga tashrif buyurdi.



Tashrif davomida muzeyning ilmiy xodimlari tomonidan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui hamda "Qatag'on qurbanlari xotirasi" davlat muzeyining barpo etilish va tarixiy ahamiyati to'g'risida ma'ruba va tanishtiruvlar tashkil etildi.

TIQXMMI matbuot xizmati